

**XOSIYAT RUSTAMOVA SHE’RIYATIDA MAQOLLAR
TRANSFORMATSIYASINING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI**

Xurinisa Xudoyberdiyeva,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xosiyat Rustamova she’riyatida maqollar transformatsiyasining lingvostilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida shoiraning badiiy matnlarida an’anaviy xalq maqollarining semantik, leksik va stilistik jihatdan qayta ishlanishi, ularning yangi kontekstda qanday ma’no kasb etishi yoritiladi.

Kalit soʻzlar: maqol, transformatsiya, lingvostilistik tahlil, poetik nutq, semantik oʻzgarish, leksik vositalar, badiiy matn, folklor, individual uslub, obrazlilik.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвостилистические особенности трансформации пословиц в поэзии Хосият Рустамовой. В ходе исследования освещается семантическая, лексическая и стилистическая переработка традиционных народных пословиц в художественных текстах поэтессы, а также раскрывается, какие новые значения они приобретают в новом контексте.

Ключевые слова: пословица, трансформация, лингвостилистический анализ, поэтическая речь, семантическое изменение, лексические средства, художественный текст, фольклор, индивидуальный стиль, образность.

Abstract. This article analyzes the linguostylistic features of proverb transformation in the poetry of K hosiya Rustamova. The study highlights the semantic, lexical, and stylistic reinterpretation of traditional folk proverbs in the poet’s literary texts, as well as how they acquire new meanings within a new context.

Keywords: proverb, transformation, linguostylistic analysis, poetic speech, semantic change, lexical means, literary text, folklore, individual style, imagery.

Maqollar xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biri boʻlib, ular asrlar davomida insoniyat tajribasi, donishmandligi va hayotiy kuzatuvlarini oʻzida mujassam etadi. Har bir maqol muayyan ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitda shakllanadi hamda avloddan-avlodga oʻtish jarayonida ma’lum oʻzgarishlarga uchraydi. Ana shu oʻzgarishlar jarayoni maqollar transformatsiyasi deb ataladi.

Maqollar transformatsiyasi tilshunoslik va folklorshunoslikda muhim oʻrin tutadi. Chunki bu jarayon orqali maqollarning shakli, mazmuni yoki qoʻllanish doirasi zamon talablari, ijtimoiy muhit va nutq egasining maqsadiga qarab yangilanadi. Baʼzan maqollar qisqartiriladi, kengaytiriladi, soʻzlari almashtiriladi yoki zamonaviy kontekstga moslab qayta talqin etiladi. Natijada ular oʻzining dastlabki ma’nosini saqlagan holda yangi ifoda va ohang kasb etadi.

Ana shunday transformatsiyalangan maqollar Xosiyat Rustamova she’riyatida ham kuzatiladi. Ular shoiraning individual uslubini ochib berishda oʻziga xos stilistik figura sifatida nomoyon boʻladi.

Shoira she’rlarida maqollar transformatsiyasi turli ko‘rinishlarda: qisqartiriladi yoki kengaytiriladi, ba’zan esa mazmunan yangicha talqin etilib, paradoksal yoki ramziy ma’nolar bilan boyitiladi. Bu jarayon orqali muallif xalq donishmandligini individual badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtiradi hamda o‘quvchini yangi estetik idrok sari yetaklaydi.

Buni “*Necha bor qor yog‘di...*” she’ri tahlili misolida ko‘rib chiqamiz.

Necha bor qor yog‘di – iz bosilmadi,

Itlar huraverdi, o‘tmadi karvon.

Ming yilki, bu odam sabr qiladi.

Vo darig‘, oltinlar topilmas hamon.

Yig‘lama, ular ham yashagan senday.

Aytasan: “Shamol yo‘q – daraxtlar nega,

Turadi boshini qimirlatganday!”

Og‘zi qon tog‘larada yurgan bo‘rining,

Qaniydi, o‘zbaki maqol qo‘llasa.

Qaroqchini urib qo‘ygan o‘g‘rining

Daraxti qimirlar shamol bo‘lmasa.

Birovning ortidan

Tosh otma, bolam

Tosh otma!..

Biror so‘z og‘ir botganda.

Daraxtlar dunyoga bermoqda salom

Daraxtlar boshini qimirlatganda.

(Bebosh bulutlar, 306-b)

Ushbu she’rda “Qor yog‘di – iz bosildi”, “It hurar – karvon o‘tar”, “Sabr tagi – sariq oltin”, “O‘g‘rini qaroqchi urar” kabi maqollar “*Necha bor qor yog‘di – iz bosilmadi*”, “*Itlar huraverdi, o‘tmadi karvon*”, “*Ming yilki, bu odam sabr qiladi, Vo darig‘, oltinlar topilmas hamon*”, “*Qaroqchini urib qo‘ygan o‘g‘ri*” shaklida, muallif tomonidan ongli ravishda transformatsiyaga uchratilgan holda qo‘llangan. Bu holat badiiy nutqda paremiologik transformatsiya (maqol va matallarning o‘zgartirib qo‘llanishi) deb ataladi. Mazkur usul orqali muallif an’anaviy xalq donishmandligini zamonaviy yoki individual talqin bilan ifodalaydi.

“*Necha bor qor yog‘di – iz bosilmadi*” – asl maqolda vaqt o‘tishi bilan muammo yo‘qolishi g‘oyasi ifodalansa, transformatsiyada *inkor shakli* orqali mazmun butunlay teskari yo‘nalishga o‘tkazilgan. Bu holat hayotda adolatning qaror topmasligi, ayb va jinoyatlarning yashirin qolishi kabi ijtimoiy muammolarni ifodalaydi. Transformatsiyada inkor shakli (*bosilmadi*) qo‘llanib, harakatning kutilgan natijasi

amalga oshmaganligi ko‘rsatiladi. Natijada *hayotda adolat kechikishi* yoki *jinoyatlarning ochilmasligi* g‘oyasi yuzaga chiqadi.

“*Itlar huraverdi, o‘tmadi karvon*” – an’anaviy “It hurar, karvon o‘tar” maqolining transformatsiyalangan ko‘rinishi bo‘lib, unda xalq donishmandligiga xos umumlashma mazmun individual mualliflik pozitsiyasi orqali qayta talqin etilgan. An’anaviy maqolda harakatning davomiyligi va muqarrarligi (“karvon o‘tar”) ifodalansa, transformatsiyada bu harakat inkor shakliga o‘tkazilgan (“o‘tmadi karvon”). Natijada ijobiy dinamik mazmun o‘rnini turg‘unlik, to‘siqqa uchrash, maqsadga yetolmaslik semantikasi egallaydi.

“*Ming yilki, bu odam sabr qiladi, Vo darig‘, oltinlar topilmas hamon*” – bu yerda “Sabrning tagi sariq oltin” mazmunidagi xalqona qarash poetik jihatdan qayta talqin etilgan. An’anaviy maqolda sabr ijobiy natija – “oltin topish” bilan yakunlansa, ushbu misralarda bu natija inkor etiladi: “oltinlar topilmas hamon”. Natijada sabr va natija o‘rtasidagi an’anaviy sabab-oqibat aloqasi buzilib, umidsizlik, kutilgan samaraning yo‘qligi ifodalanadi. Bunda vaqt kategoriyasi orqali umumlashtirish kuchaytirilgan. “Ming yilki” birikmasi giperbolik xarakterga ega bo‘lib, sabrning nihoyatda cho‘zilganini, deyarli behuda davom etayotganini anglatadi. Bu esa lirik qahramon ruhiyatidagi charchoq va iztirobni kuchaytiradi. Maqolda emotsional-ekspressiv vositalar muhim rol o‘ynaydi. “Vo darig‘” undovi matnga kuchli hissiy ohang bag‘ishlab, armon, nadomat va iztirobni ifodalaydi. Shu orqali maqolning sodda didaktik ruhi o‘rniga murakkab psixologik holat tasviri yuzaga keladi.

“*Qaroqchini urib qo‘ygan o‘g‘ri*” birligi xalq og‘zaki ijodiga xos “O‘g‘rini qaroqchi urar” mazmunidagi maqolning transformatsiyalangan ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. An’anaviy maqolda bir xil ijtimoiy toifadagi shaxslarning o‘zaro qarama-qarshiligi umumiy tarzda ifodalansa, bu misrada “o‘g‘ri” va “qaroqchi” obrazlari o‘zaro differensiyalangan holda beriladi. Natijada jinoyat subyektlari o‘rtasida ichki ierarxiya, ya’ni darajalanish mavjudligi anglashiladi. Bu esa mazmunga aniqlik va konkretlik kiritadi.

Transformatsiyalangan maqollar:

- matnga *satirik va tanqidiy ohang* beradi;
- o‘quvchining tayyor stereotipini o‘zgartiradi;
- xalq donishmandligi bilan real hayot o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.
- o‘quvchini *tanqidiy fikrlashga* undaydi;
- she’rni *ijtimoiy-falsafiy diskurs* darajasiga ko‘taradi.

Mazkur she’rda maqollarning o‘zgartirib qo‘llanishi *lingvostilistik jihatdan ongli badiiy strategiya, semantik inversiya, ironiyalashuv va satira* vositasi va xalqona

tafakkur bilan zamonaviy haqiqat o‘rtasidagi ziddiyatni ochuvchi kuchli ifoda vositasi hisoblanadi.

Bundan tashqari shoira ijodida shaklan o‘zgargan ammo ma’nosi saqlab qolingan maqollar ham qo‘llangan.

*Yaxshilarni tushar izidan
Yomonlarni suymaydi jini
Bu dunyoda xatto o‘lim ham
Yerga urmas ekan qadrini.*

(Bebosh bulutlar, 200-b)

Yuqoridagi misolda “Yaxshiga kun yo‘q, yomonga – balo” degan xalq maqoli “Yaxshilarni tushar izidan, yomonlarni suymaydi jini” shaklida shoira tomonidan ifodalangan. Mazkur misolda shoira xalq maqolini transformatsiyasini yuzaga keltiradi. Xalq maqolida umumlashma va ixchamlik ustun bo‘lib, unda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik antitezaga asoslangan holda ochib berilgan. “Yaxshiga kun yo‘q” va “yomonga balo” birliklari orqali hayotiy adolatsizlik umumiy, abstrakt tarzda ifodalanadi. Shoira esa ushbu mazmuni obrazli va dinamik tasvir orqali qayta yaratadi. “Yaxshilarni tushar izidan” birikmasida metaforik ifoda qo‘llanib, yaxshilarning doimo sinov va ta‘qib ostida bo‘lishi obrazli tarzda aks ettiriladi. “Izidan tushmoq” fe‘li semantik jihatdan bosim, quvg‘in va bezovtalik ma’nolarini kuchli ifodalashga hizmat qiladi. “Yomonlarni suymaydi jini” misrasida xalqona mifologik tasavvur stilistik vosita sifatida ishlatilgan. Mazkur misolda xalq maqoli intertekstual birlik sifatida qayta talqin qilinib, shoira tomonidan individual poetik tafakkur asosida yangicha stilistik shaklga solingan. Natijada an’anaviy donishmandlik zamonaviy badiiy nutqda obrazli, emotsional va estetik jihatdan boyitilgan holda namoyon bo‘ladi.

*Tuproqqa tushadi yerning xosili.
Bu azaldan bor gap.
Bu ham aqida.
Balki gazetada chiqar bosilib,
Mening o‘lganligim haqida. (232)*

Keltirilgan misolda “Olmani tagiga olma tushar” degan xalq maqoli “Tuproqqa tushadi yerning xosili” shaklida ifodalangan. Ular o‘rtasida mazmuniy uzviylik saqlangan bo‘lib, shoira maqolni badiiy transformatsiya asosida qayta talqin etgan. Mazkur xalq maqolida sabab–natija munosabati konkret predmetlar (olma va olma daraxti) orqali ifodalangan bo‘lib, unda nasliy davomiylik, manba va natijaning birligi haqidagi umumiy falsafiy xulosa mujassam. Shoira “tuproq” va “yerning hosili” birliklari orqali konkret “olma” obrazi umumlashtirgan. Bu yerda “tuproq” manba, “yerning hosili” esa natija ramzi sifatida qo‘llanadi. Stilistik jihatdan, shoira metonimik

va metaforik kengayish usulidan foydalangan. “Yerning hosili” birikmasi semantik jihatdan inson, tabiat va mavjudotlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi ramziy obraz vazifasini bajaradi.

Shoira she’rlarida qo‘llangan transformatsiyalangan maqollar badiiy tafakkurning faol elementi bo‘lib, ular orqali xalq donishmandligi zamonaviy poetik nutqda qayta talqin qilinadi. Ushbu transformatsiyalar lingvostilistik jihatdan ekspressivlikni kuchaytiradi, obrazlilikni boyitadi va shoira ijodining milliy hamda individual xususiyatlarini yorqin namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шомаксудов Ш, Шорахмедов Ш. Хикматнома. – Тошкент: 1990. – Б.
2. Куронов Д. Адабийтшунослик лугати. – Тошкент. Академнашр, 2010. – Б. 41.
3. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. – Тошкент: Укитувчи, 2000 – Б.133.
4. Xosiyat Rustamova. Devor. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashryot. –Toshkent, 2006.
5. Xosiyat Rustamova. Rido. “Yangi asr avlodi”. – Toshkent, 2004.
6. Xosiyat Rustamova. Bebosh bulutlar. “O‘zbekiston”. – Toshkent, 2019.